

“AL-QODIR BUILDER” МЧЖ бундан буён «ПУДРАТЧИ» деб юритулувчи амалдаги шартномага асосан ҳаракат қилувчи бошлиқ шахсидан А.Бобоев ва Учкўприк туман Ободонлаштириш бошқармаси бундан буён «БҮЮРТМАЧИ» деб юритулувчи амалдаги шартномага асосан ҳаракат қилувчи бошлиқ шахсидан Д.Эргашев ушбу шартномани қуйидагилар тўғрисида тузатилади.

1. ШАРТНОМА МАЗМУНИ.

- 1.1 «ПУДРАТЧИ» ўз кучи, транспорт воситалари ва механизмлари билан «БҮЮРТМАЧИ» га қарши Учкўприк туман Юлғинзор МФЙ аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ишларини шартномага илова қилинувчи сметага мувофиқ жорий тамирлаш ишларини амалдаги техник шартларга риоя қилган ҳолда тамирлаш мажбуриятлари ўз зиммасига олади.
- 1.2 «ПУДРАТЧИ» тегишли проект-смета ҳужжатларига мос ҳолда «БҮЮРТМАЧИ» томонидан биноларни тамирлаш ишларини қилинган вақтда бажариш ва уни камчиликларсиз тулик тайёр ҳолда ўз муддатида «БҮЮРТМАЧИ» га топширишни ўз зиммасига олади.
- 1.3 «ПУДРАТЧИ» иш бажариш вақтида қурилиш монтаж ва тамирлаш ишлари учун кетадиган қурилиш материалга ва ишчи кучини ўз ҳисобидан ўзи таъминлайди.
- 1.4 «ПУДРАТЧИ» томонидан қилинган ишлар якунлангандан кейин Ф-2, Ф-3 далолатномаларини «БҮЮРТМАЧИ» узинини мутахассислари иштирокида қабул қилиб олади.

2. ШАРТНОМА БАХОСИ.

- 2.1 Шартноманинг умумий баҳоси 490000000 (Тўрт юз тўқсон миллион) сумни ташкил қилади.
- 2.2 Шартнома баҳоси уз ичига КМИ материаллар баҳоси тафовутини олади.

3. ТҶЛОВ ШАРТЛАРИ.

- 3.1 Ушбу шартнома буйича «БҮЮРТМАЧИ» томонидан «ПУДРАТЧИ» ҳисоб рақамига 30% аванс тўловини утказиб беради.
- 3.2 Тўлов шакли «ПУДРАТЧИ» томонидан Ф-2, Ф-3 ҳужжатларини тасдиқлангандан сўнг солиштирма далолатномаси ва ҳисоб фактурага асосан «БҮЮРТМАЧИ» «ПУДРАТЧИ» нинг ҳисоб рақамига тўғридан тўғри пул утказиб беради.
- 3.3 Шартнома буйича охириги ҳисоб-китоб иш тулик тамомлангандан сўнг 30 кундан кечиктирмай «БҮЮРТМАЧИ» томонидан амалга оширилади.

4. МАЖБУРИЯТЛАРНИ БАЖАРИШ МУДДАТЛАРИ.

- 4.1 «ПУДРАТЧИ» ушбу шартномани 1-бўлимида назарда тутилган ишларини 30-кун муддатда бажарали.
- 4.2 «БҮЮРТМАЧИ» «ПУДРАТЧИ» томонидан бажарилган ишга бажарилган ишлар ҳужжатлари тула тасдиқлангандан сўнг 30 кун ичида ҳақ тўлайди, ёки ёрдамчи «Пудратчи» нинг розилик хатига асосан «Пудратчи» дан мавжуд бўлган қурилиш материаллари билан ҳисоб-китоб қилинади.
- 4.3 Шартнома 2022 йил 22 август дан 2022 йил 31-декабргача амал қилади.

5. ТАРАФЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ.

- 5.1 «ПУДРАТЧИ»:
 - 5.1.1 Ўз кучи техника воситаси билан календар иш режаёнида назарда тутилган барча ишларни тула ҳажмда ва муддатда бажаришни ва тегишли лойиҳа ҳужжатларидаги ҳолатда ишларни «БҮЮРТМАЧИ» га меърий ҳужжатлар талабига ва қондалар асосида топшириш;
 - 5.1.2 Объектга лойиҳага биноан бўлган материалларни конструкцияларини бутловчи ашёларни етказиб бериш ва уларни қабул қилиш тушириш тахлаш ҳамда саклашни амалга ошириш;
 - 5.1.3 Ушбу шартнома буйича ишларни бажариш учун жалб қилинадиган махсус танкилотлар билан субподряд шартномаги тузганини тўғрисида «БҮЮРТМАЧИ» га ахборот бериш ва у томонидан ишларни бажарилиши юзасидан назоратни таъминлаш;
 - 5.1.4 Техника хавфсизлиги, ёнгин хавфсизлиги ва объектни қурилиши буйича зарур чора тadbирларини бажарилишини таъминлаш;
 - 5.1.5 «ПУДРАТЧИ» назорати туловларидан келиб чиққан ортикча иш ҳақи ҳажми учун жавоб бермайди.

- 5.2 «БҮЮРТМАЧИ»:
 - 5.2.1 Календар иш режаси белгиланган ҳажмда ва муддатда ҳажми «ПУДРАТЧИ» га топшириш;
 - 5.2.2 У шартномани 1-бўлимида назарда тутилган ишлар шартномада белгиланган миқдорда ва муддатда «ПУДРАТЧИ» га ҳақ тўлаш;
 - 5.2.3 «ПУДРАТЧИ» дан ёзма хабарнома олган санадан бошлаб 2 ҳафта ичида объектни қабул қилиш мажбуриятларини олади.

6. ТАРАФЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

- 6.1 ПУДРАТЧИ хизмат кўрсатиш муддатлари кечиктириб юборилган, ишлар бажарилмаган ёки хизматлар кўрсатилмаган ҳолларда пудратчи буюртмачига кечиктирилган ҳар бир кун учун мажбурият бажарилмаган қисмининг 0,5 фоизи миқдорда пеня тўлайди, бироқ бунда пенянинг умумий суммаси етказиб берилмаган товарлар, бажарилмаган ишлар ёки кўрсатилмаган хизматлар баҳосининг 50 фоизидан ошиб кетмаслиги лозим.
- 6.2 Тарафлардан бири ушбу шартнома буйича мажбуриятларни бажармаган ёки лойиҳа даражада бажармаган ҳолларда айбдор тараф бошқа тарафга бой берилган фойдани қўшиб қўрган зарарни қоплайди.
- 6.3 Пеня тўлаш тарафларни мажбуриятларини бажариш ёки бузилиш хушқий бартараф этишдан озод этмайди.
- 6.4 Буюртмачи хизматлар ҳақини ўз вақтида тўламаганлик учун (буюртмачи) ПУДРАТЧИ га утказиб юборилган ҳар бир кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0,4 фоизи миқдорда, аммо кечиктирилган тўлов суммасининг 50 фоизидан ортиқ бўлмаган миқдорда пеня тўлайди.

7. ФОРС-МАЖОР ХОЛАТЛАРИ

- 7.1 Тарафларни биронтаси ҳам ушбу шартнома буйича олган мажбуриятларини тарафларни эрки ва истагидан танқари найдо бўлган ва уларни олдиндан кура билниш ёки бартараф этиш мумкин. Булмаган ҳолатлар бундан уруш эълон

қилинишни ёки амалда бошланганлиги фуқоралик тартибсизлиги, вабо тарқалиши, блокада, эмбарго, ер емиришни сув тошқини ёнгини ва бошқа табиий ҳолатлар билан боғлиқ ҳолда бажармаганлиги учун жавобгар бўлмайди.

7.2 Бартараф қилиб бўлмайдиган кучларнинг мавжудлиги ёки амалда давом этмаганлиги Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан шунга оид қарорлари ёки бошқа ваколатли органлари томонидан берилган гувоҳномалар унинг етарли даражасидаги тасдиғи ҳисобланади.

7.3 Ўз мажбуриятларини бажармаган тараф шартнома буйича мажбуриятни бажармаган тараф шартнома буйича мажбуриятни бажариш унинг тасир кўрсатиши ёки монелик қилиш тўғрисида бошқа тарафга имкон қадар тез хабар бериши лозим.

7.4 Агар бартараф қилиб бўлмайдиган кучлар 3 ой давомида мунтазам тасир этаётган бўлса ва тугани белгилари аниқланмаса ижара берувчи шартнома бекор қилиниши мумкин.

8. НИЗОЛАРНИ ХАЛ ҚИЛИШ ТАРТИБИ.

8.1 Тарафлар ўртасида ушбу шартнома буйича ёки у билан пайдо булган барча низолар ёки келишмовчиликлар тарафлар ўртасида музокара йули билан хал қилинади.

8.2 Агар келишмовчиликлар музокара йули билан хал қилиб булмаса, улар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда иккисидан бирига судда қурилиши лозим бўлади.

9. ШАРТНОМАГА ҚЎШИМЧА ВА ЎЗГАРТИРИШЛАР КИРИТИШ ТАРТИБИ.

9.1 Ушбу шартнома ҳар қандай киритилган қўшимча ва ўзгартиришлар ёзма равишда расмийлаштириб ҳар иккала томон имзолаган ҳолларда сунг қонуний кучга эга бўлади.

9.2 «БУЮРТМАЧИ» қуйидаги ҳолларда шартномани бекор қилишга ҳақлидир:

9.2.1 «ПУДРАТЧИ» нинг «айби билан ишларни боришини сусткашлик билан муддати 1 (бир) ой ун (10) кунга охиб кетганда;

9.2.2 «ПУДРАТЧИ» нинг шартнома шартларини бузиш натижасида курсатилган ишларини сифати пасайганда;

9.3 «ПУДРАТЧИ» қуйидаги ҳолларда шартномани бекор қилишга ҳақли;

9.3.1 «БУЮРТМАЧИ» томонидан «ПУДРАТЧИ» га боғлиқ булмаган сабаблар буйича қурилиш-монтаж ишларининг боришини 1 ойдан ошадиган муддатга тухтатиб турганда;

9.3.2 «БУЮРТМАЧИ» томонидан лойиха ҳужжатларини ўзгартиришлар киритиш билан боғлиқ ҳолда ишларини баҳоси 50% кунга камайганда;

9.3.3 «БУЮРТМАЧИ» томонидан кейинчалик қурилиш молиялаш имконияти йукотилганда;

9.4 «БУЮРТМАЧИ» «ПУДРАТЧИ» нинг биргаликдаги қарори буйича шартнома бекор қилинади. «БУЮРТМАЧИ» ва «ПУДРАТЧИ» га улар томонидан аниқланган бажарилган ишлар ҳажми қийматини тулайди.

9.5 Шартнома бекор қилишга қарор қилган тараф бошқа тарафга ёзма хабарнома юборилади.

10. БОШҚА ШАРТЛАР.

10.1 «ПУДРАТЧИ» амалдаги тартиб ва қоидалар буйича бажарилган ишлар сифатига 1-йил муддатга қарантина берили. Ушбу бандга риоя қилинмаган ҳолларда бажарилган ишлар шартномавий қийматининг 2 баробари миқдоринда жарима тулайди.

10.2 Ҳар иккала томон Ўзбекистон Республикаси қонунилари доирасида фаолият кўрсатадилар.

10.3 Мазкур шартнома 2022 йил 31-декабргача амал қилади.

11. КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ ҚОИДАЛАРНИНГ АСОСИЙ ШАРТЛАРИ

11.1 «Буюртмачи» ва «Сотувчи» ушбу шартнома буйича ўз хизмат вазифаларини бажараётганда қоррупсиявий ҳаракатларда қатнашмаслик, шу жумладан, ғайриқонуний имтиёزلарни олиш ёки бошқача тарзда ғайриқонуний мақсадларда ўзининг ёки бошқа шахсларнинг ҳаракатлари ёки қарорларига таъсир қилиш учун пул маблағлари ёки бошқа қийматликлар қўриқинида:

Нора таклиф қилмаслик; ваъда бермаслик;

Пул туламаслик; товламачилик қилмаслик;

Бевосита ёки билвосита пора олишга розилик бермаслик; пора олмаслик;

бирон-бир шахс фойдасига ёки бирон бир шахс хизматларидан фойдаланмаслик; мол-мулк ёки мулкрий ҳуқуқларини оямаслик;

Ўз ваколатларини суистеъмол қилмаслик мажбуриятини олади.

11.2. «Буюртмачи» ва «Сотувчи» атрафдаги шахслар томонидан қоррупсияга оид ҳуқуқбузарликни содир этгани ёки унда қатнашини таъйиргарлик қўриши сифатида баҳолашни мумкин бўлган ҳулқ-атвордан ўзини тийини шарт.

11.3. «Буюртмачи» ва «Сотувчи» Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари ва (Давлат органи ёки таъшиқотининг номи) ички ҳужжатларига мувофиқ манфаатлар тўқнашуви келиб чиқиниши олдини олиш чораларини қўриши ва манфаатлар тўқнашуви ёки унинг келиб чиқиниши эҳтимоли ҳақида ўзига маълум бўлиши билан дарҳол шартнома буйича ўзидан бошқа тарафни хабардор қилиши шарт.

12. ТАРАФЛАРНИНГ ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ

ВА ТУЛОВ РЕКВИЗИТЛАРИ.

«Пудратчи»

«AL-QODIR BUILDER» МЧЖ

«Пудратчи»нинг номи)

Пой тулови Хужабод СМЖ Хамкорлик

Р/Х/р: 2020 8000 8050 9069 9001

Қоғозсиз бўлиб қолдирилган

Банка қол банка 00973 СТИР: 306 501186

ОҚОНХ: 61110; Код НДС: 314110128430

Раҳбар:

А.Бобоев

(имзо)

(Ф.И.Ш)

«Буюртмачи»

Учқўприк тумани Ободонлангирини бошқармаси

(бюджетдан маблағ олувчининг номи)

Манзил: Учқўприк ш.Шодлик кўчаси 2-уй

Тел./факс: + 998905666575

ш/х*:401722860302217065200110003

СТИР: 300695662 ОКЭД: 97600

Учқўприк тумани буйича Газначилик бўлинимаси

Газна х/в: 23 402 000 300 100 001 010

Банк номи: Марказий банк ХККМ Тошкент ш.Б.Б.

МФО: 00 014 СТИР: 201 122 919

Раҳбар: Д.Органев

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJJATLARNING QONUN
HUIJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA

№ DG8775637576



1. Loyihaing turi:

Podrat shartnomasi

2. Loyiha ishlab chiqilgan muddat va yuridik xizmat ko'rsatish

markaziga kiritilganligi to'g'risidagi ma'lumot:

Shartnoma loyihasi 2022-yil 19-avgust kuni Uchko'prik tumani yuridik xizmat ko'rsatish markaziga «E-Huquqshunos» elektron tizimi orqali taqdim qilingan.

3. Podrat shartnomasining qisqacha mazmuni:

AL-QODIR BUILDER" MChJ bundan buyon «PUDRATCHI» deb yuritiluvchi amaldagi nizomga asosan xarakat kiluvchi boshlik shaxsidan A.Boboev va Uchko'prik tuman Obodonlashtirish boshkarmasi bundan buyon «BUYURTMACH» deb yuritiluvchi amaldagi nizomga asosan xarakat kiluvchi boshlik shaxsidan D.Ergashev ushbu shartnomani kuyidagilar tugrisida tuzadilar.

1. «PUDRATCHI» o'z kuchi, transport vositalari va mexanizmlari bilan «BUYURTMACH» ga karashli Uchko'prik tuman Yulginzor MFY axolisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlarini shartnomaga ilova kilinuvchi smetaga muvofik joriy tamirlash ishlarini amaldagi texnik shartlarga rioya kilgan xolda tamirlash majburiyatlari uz zimmasiga oladi. Xalq deputatlari Uchko'prik tumani Kengashining 2022-yil 11-aprel kungi VI-55-73-11-162-K-22-sonli qarori ilova qilingan.

Ushbu shartnoma buyicha «BUYURTMACH» tomonidan «PUDRATCHI» hisob raqamiga 30% avans to'lovini o'tkazib beradi. Unga ko'ra bajariladigan joriy ta'mirlash ishlarini 30 kun muddat ichida bajarilishi kerak. Shartnomaning amal qilish muddati 2022-yil 31-dekabr qilib belgilangan. Agar pudratchi tomonidan tamirlash ishlari vaqtida amalga oshirilmasa dalolatnoma tuzish bilan kamchiliklar belgilanadi.

Umumiy summa: Shartnomaning umumiy baxosi 490000000 (To'rt yuz to'qson million) so'mni tashkil qiladi. Shartnoma baxosi o'z ichiga KMI materiallar baxosi tafovutini oladi.

4. Shartnoma loyihasining qonunchilik hujjatlari asosida o'rganish.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga, Vazirlar Mahkamasining "Davlat buyurtmachilari tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarida uzluksizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga va boshqa Qonunchilik hujjatlari asosida o'rganildi. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunning 30-moddasiga asosan, Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

elektron do'kon;

boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion;

eng yaxshi takliflarni tanlash;

tender;

to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Taraflarning javobgarlik masalasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining 25-32-moddalariga hamda fuqarolik kodeksiga mos ravishda ishlab chiqilgan.

**Mahsulot yetkazib berish shartnomasi loyihasi o'rganib chiqilib,
xulosa qilindi:**

Mazkur Putrat shartnomasi loyihasi Qonunchilik hujjatlari asosida o'rganib chiqilishi natijasida ushbu shartnoma loyihasi Qonunchilik hujjatlariga muvofiq deb topilsin.

Uchko'prik tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi boshlig'i
2022-yil 18-avgust



E.A.Do'ltayev

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 133176 на приобретение Учкуприк тумани Юлгунзор МФЙ ахолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш

Способ проведения электронный

Дата 17.08.2022

Время рассмотрения 17.08.2022 10:31

Конкурсная комиссия Учкуприк тумани Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|-----------------------|--------------------------------------|-----------------|---|
| Председатель комиссии | ERGASHEV DILSHOD YUSUPOVICH | комиссия раиси | Учкуприк тумани Ободонлаштириш бошкармаси |
| Секретарь комиссии | TO'XTASINOVA ZUXRAXON XABIBULLAYEVNA | комиссия аъзоси | Учкуприк тумани Ободонлаштириш бошкармаси |
| Член комиссии | ERGASHEV DAVLATJON JO'RAQO'ZIYEVICH | комиссия аъзоси | Учкуприк тумани Ободонлаштириш бошкармаси |
| Член комиссии | QODIROV YUSUFJON YUNUSOVICH | комиссия аъзоси | Учкуприк тумани Ободонлаштириш бошкармаси |
| Член комиссии | TOSHMATOV RASHIDJON ASTANAKULOVICH | комиссия аъзоси | Учкуприк туман Ободонлаштириш бошкармаси |
| Член комиссии | NAZAROV MUXAMADJON MUXTOROVICH | комиссия аъзоси | Учкуприк туман Ободонлаштириш бошкармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 17.08.2022 года № лота 133176.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 10

Предмет закупки:

| | |
|--------------------------------------|-----------------------------------|
| Наименование товара (работы, услуги) | Услуги по холодному водоснабжению |
| Подробное описание | Услуги по холодному водоснабжению |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 490 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 490 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ишларни ўз вақтида сифатли бажариб топширилиши туғрисида кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Зарур

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| КЕНАГАС МУКАММАЛ КУРИЛИШ Х.К | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ юкланмоқда(кафолат хати) | 7 | Экспертная | | |
| "AL-QODIR BUILDER" MCHJ | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ юкланди | 10 | Экспертная | | |

Критерий №2 Ташкилот низом и ва руйхатдан утказилгани тугрисида гувоҳнома

Тип: Текстовое значение

Описание: зарур

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| КЕНАГАС МУКАММАЛ КУРИЛИШ Х.К | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ юкланмоқда(корхона гувоҳномаси, раҳбар паспорти ва корхона низоми) | 9 | Экспертная | | |
| "AL-QODIR BUILDER" MCHJ | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ юкланмоқда(корхона гувоҳномаси, раҳбар паспорти ва корхона низоми) | 10 | Экспертная | | |

Критерий №3 солиқдан ва бош ка мажбурий туловлардан қарзи йўқлиги тугрисида

Тип: Текстовое значение

Описание: зарур

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------------|-----------|--|----------------|------------|------------|---------|
| КЕНАГАС МУКАММАЛ КУРИЛИШ Х.К | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ юкланмоқда(солқдан ва банкдан қарзи йўқлиги тўғрисида маълумотнома) | 9 | Экспертная | | |
| "AL-QODIR BUILDER" MCHJ | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ ва мукамал юкланди | 10 | Экспертная | | |

Критерий №4 Корхонанинг захирасида хизматларни амалга ошириш учун махсулотлар тўғрисида маълумот тақдим этилиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Зарур

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------------|-----------|---|----------------|------------|------------|---------|
| КЕНАГАС МУКАММАЛ КУРИЛИШ Х.К | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ юкланмоқда(маълумотнома) | 8 | Экспертная | | |
| "AL-QODIR BUILDER" МСНД | 10 | сўралган хужжатлар тўлиқ юкланмоқда(маълумотнома) | 10 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|------------------------------|-----------------|--------------------|----------------------------------|------------------------|----------------------|---------------------|-------------------------|
| КЕНАГАС МУКАММАЛ КУРИЛИШ Х.К | 490 000 000.00 | 465 500 000.00 UZS | 465 500 000.00 | 00.00 | 465 500 000.00 | 14.08.2022 23:22:12 | 20.00 |
| "AL-QODIR BUILDER" МСНД | 490 000 000.00 | 490 000 000.00 UZS | 490 000 000.00 | 00.00 | 490 000 000.00 | 16.08.2022 15:39:27 | 19.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|------------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| КЕНАГАС МУКАММАЛ КУРИЛИШ Х.К | 66 | 20 | 86 |
| "AL-QODIR BUILDER" МСНД | 80 | 19 | 99 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 133176 от 17.08.2022 года на приобретение Учкуприк тумани Юлгунзор МФЙ ахалисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш определила победителем:

"AL-QODIR BUILDER" МСНД
306501186

и резервный исполнитель: КЕНАГАС МУКАММАЛ КУРИЛИШ Х.К (205919870)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|-----------------------|-------------------------------------|-------------|-------------|
| Председатель комиссии | ERGASHEV DILSHOD YUSUPOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | ERGASHEV DAVLATJON JO'RAQO'ZIYEVICH | Согласен | |
| Член комиссии | QODIROV YUSUFJON YUNUSOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | NAZAROV MUXAMADJON MUXTOROVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

ЙИҒИЛИШ БАЁНИ

«22» 08 2022 йил

№ сон 10

Учкўприк тумани

«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Учкўприк тумани Ободонлаштириш
бошқармаси бошлиғи Д.Эргашев

Учкўприк тумани Юлғинзор МФЙ аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ишларини очиқ бюджет маблағлари ҳисобидан жорий таъмирлаш (Ичимлик суви билан таъминлаш) учун ўтказилган электрон эълон натижалари тўғрисида

Раислик қилувчи: комиссия раиси:

Д.Эргашев

Қатнашдилар:

1. М.Назаров

2. Ю.Қодиров

3. Д.Эргашев

4. З.Тўхтасинова

Йиғилиш кун тартибида кўриладиган масала:

Учкўприк тумани Юлғинзор МФЙ аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ишларини очиқ бюджет маблағлари ҳисобидан жорий таъмирлаш (Ичимлик суви билан таъминлаш) учун ўтказилган электрон эълон натижалари тўғрисида.

Кун тартибидаги масала юзасидан Учкўприк тумани Юлғинзор МФЙ аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ишларини очиқ бюджет маблағлари ҳисобидан жорий таъмирлаш (Ичимлик суви билан таъминлаш) учун ўтказилган электрон эълонга раислик қилувчи Д.Эргашев сўзга чиқиб, ушбу элон Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли Давлат харидлари тўғрисидаги қонун асосида шаффоф ва ҳаққоний ўтканлигини айтиб ўтди. Шундан сўнг Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли Давлат харидлари тўғрисидаги қонунинг 62-модда 7-хат бошида кўрсатилганидек,

Давлат буюртмачиси томонидан харид комиссиясига тақдим этилган муҳокама натижалари тўғрисидаги ахборот асосида харид комиссиясининг тегишли мажлиси баённомаси расмийлаштирилади ва имзоланган кундан бошлаб уч иш куни ичида давлат харидларининг электрон тизимига жойлаштирилиши лозим эканлигини яна бир бор таъкидлаб ўтди. Муҳокама муддати якунига етгандан сўнг бошқа қатнашчилар томонидан ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлигини инобатга олган ҳолда йиғилиш хайати:

Қарор қилади.

1. Муҳокама муддати якунига қадар бошқа қатнашчилар томонидан ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлигини инобатга олиб "AL-QODIR BUILDER" МЧЖни йиғилиш хайъати ғолиб деб эълон қилсин.

2. Ғолиб деб топилган қатнашчи " AL-QODIR BUILDER " МЧЖ билан қонунчиликда белгиланган тартиба шартномаларни расмийлаштириб, маблағларни тўлаб бериш чоралари кўрилсин.

Комиссия раиси:




Д.Эргашев

Котиб:



М.Назаров


Комиссия азолари:



Ю.Кодиров



Д.Эргашев



З.Тўхтасинова



XALQ DEPUTATLARI UCHKO'PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 11 - aprel

VI-55-73-11-162-K/22

Uchko'prik tuman hokimligi

Uchko'prik tumanida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan mazkur tadbirlarga mablag'lar ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan tumanda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan mazkur tadbirlarga mablag'lar ajratish maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Uchko'prik tumani Kengashi sessiyasi.

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 1-fevralidan 2-aprelga qadar o'tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo'yicha tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri T.Salimovning axboroti;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi "Tuman va shahar byudjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvatlash to'g'risida"gi PQ-197-sonli qaroriga asosan Uchko'prik tumaniga har biri 2 ming tadan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'lmagan 4 ta takliflarni moliyalashtirish uchun 1980,0 mln so'm qo'shimcha mablag' ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 4-fevral kungi VI-50-20-11-162-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi "Tuman va shahar byudjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllanirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PQ-197-sonli qaroridan kelib chiqib, "ENG KO'P" ovoz olgan hamda "Ochiq byudjet" axborot portalida avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan takliflar "g'olib" deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha "Manzilli ro'yxat" ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik;

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman byudjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilli ro'yxat asosida:

tuman hokimligi Moliya bo'limi (Salimov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

tuman hokimligi hisobxonasi (Sotvoldiyev) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi A. Ermatov va tuman moliya bo'limi mudiri T. Salimov bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq byudjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

6. Mazkur Kengash qarori bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Turanov), Kengashning "Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni

amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" va "Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha" doimiy komissiyalari raislari M.Dexqonov va G'.Abdullayev hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Asqarov zimmasiga yuklansin.

7.Mazkur Kengash qarori rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiritiladi.

Xalq deputatlari Uchko'prik
tumani Kengashi Rahbari



A.A.Maxmudaliyev

“Тасдиқлайман”

“Фарғона сув таъминоти” МЧЖ
 Учқуприк тумани бўлими раҳбари
 О.Шукуров
 2022 йил



Нуксон далолатнома

Бизлар қуйда имзо чекиб далолатнома тузувчилар “Фарғона сув таъминоти” МЧЖ Учқуприк тумани бош муҳандиси М.Эркаев Учқуприк тумани энергетиги А. Мадрахимов, ИЧБ муҳандиси Ж. Абдулхамидов. Юлғунзор МФЙ Юлғунзор қишлоғида 2022 йил «Ташаббусли бюджет» дастури асосида ҳудудда яшовчи аҳолининг тоза ичимлик суви таъминотини яхшилаш учун қуйдаги ишлар амалга оширилиши зарур деб ҳисоблаймиз.

Юлғунзор қишлоғи

| | Бажариладигон ишлар тури | Ўлчов бирлиги | Сони | Маркаси | Изоҳ |
|---|--------------------------|---------------|------|-------------|------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 | Ичимлик сув кудуғи казиш | Дона | 1 | Д-219 мм | |
| 2 | ТП ўрнатиш | дона | 1 | 160 кв | |
| 3 | Сув насоси ўрнатиш | дона | 1 | ЭЦВ 8-25-90 | |
| 4 | Сув кўтариш турбаси | метр | 80 | | |
| 5 | ВПП кабел | метр | 320 | ВПП-16 | |

Юқоридегиларни тўғри деб имзо чекувчилар

“Фарғона сув таъминоти” МЧЖ
 Учқуприк тумани бўлими муҳандиси.

М.Эркаев

“Фарғона сув таъминоти” МЧЖ
 Учқуприк тумани бўлими энергетиги.

А. Мадрахимов

“Фарғона сув таъминоти” МЧЖ
 Учқуприк тумани бўлими ИЧБ мутахаси

Ж. Абдулхамидов



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Фарғона вилояти

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy tel 73)-244-68-81 244-68-82 mail: fergexp@rambler.ru

www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: MADMAROV KUDRAT YAXIYADJANOVICH

Sana: 04-08-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 54935

Obyekt nomi «Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani Yulg'unzor MFY axolisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.»

Buyurtmachi - "ASR ARCHITECT PROJEKT" MCHJ

Bosh loyihachi - "ASR ARCHITECT PROJEKT" MCHJ

Litsenziya 24.02.2022y № AL-001969 -sonli

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari

Bosh pudratchi - Tender savdolari asosida (agar qaror qabul qiluvchi organ tomonidan belgilangan bo'lsa)

Qurilish turi Qurilish.

Murojaat raqami: № 51714

1. Loyihalash uchun asos

Xalq deputatlari Uchko'prik tumani kengashining 2022 йил 11-апрел кунги VI-55-73-11-162-K/22 son va Uchko'prik tumani hokimining 2022 yil 24 iyun kungi 212-11-156-Q/22-son qarori

1.2. . Arxitektura va Qurilish boshqarmasi tomonidan 14.07.2022 yilda berilgan 1730-1730221-46247-sonli Arxitektura va Rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Farg'ona viloyat, qurilish bosh boshqarmasi Uchko'prik bo'limi boshlig'i J.Madaminov, kelishilgan Uchko'prik tumani hokimi o'rinbosari H.Ummatov tomonidan tasdiqlangan Loyixa topshirig'i.

1.4. Muhandislik tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari, muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi va foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

1.5. Farg'ona gidrogeologiya stansiyasi GIDROGEOLOGIK XULOSA seriya: FR raqami: 0378;

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyixa tarkibiga ko'ra elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyixa smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Ichimlik suv manbasi: - gidrogeologik xulosa asosida bir dona ichimlik suv qudug'i qazish va uni jixozlash, yengil konstruksiyali pavilion qurish; III. Elektr va Avtomatik boshqaruv tizimi (ASU): - mavjud katta kuchlanishli xavo liniyasidan tarmoq tortish; (uzunligi va kuchlanishi loyihani ishlab chiqishda aniqlanadi); -

transformator podstansiyasi o'rnatish; (tuman elektr tarmoqlari texnik shartiga asosan, quvvati loyihani ishlab chiqishda aniqlanadi);

Ishchi loyihani ishlab chiqishda quyidagilar hisobga olinsin: -ulanish nuqtasi va tugallanish nuqtasi "Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ tomonidan berilgan texnik shart va tasdiqlangan bosh rejaga asosan; I. Ichimlik suv manbasi: - zamonaviy energotejamkor nasos va uskunalarni qo'llash; - loyixalarda tarmoqlar va inshootlarni gidravlik xisobini bajarish; - suv manbaalaridan chiqish qismiga zamonaviy suv xisoblagichlar o'rnatish; II. Jihoz va uskunarlar o'rnatish: - suv minorasi ta'mirlashda kirish va chiqish quvurlarida muzlashga qarshi ximoya (teplo izolyasiya) qilish; - suv saqlash minorasini avtomatik o'chirib yoqish.

Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish.

Yo'l va yo'laklar asfalt beton qoplamalari tiklanadi. Yo'laklar qirg'oqlari beton bordyurlar bilan. Loyixada xududni ko'kalazorlashtirish ishlarida dekorativ o'simliklar, mevali daraxtlar va gullardan, o'tli to'shamalar qaytadan tiklanadi. Loyixada suv tarkatish inshooti atrofini yevro beton to'siqlar yordamida urash ko'zda tutilgan. Metall konstruksiyalari 2 marta bo'yalishi kerak. Yevro beton to'siqlar ustiga 5 qator yegoza yoki tikanli sim tortilishi kerak.

Suv ta'minoti tarmoqlarining ishlashi uchun asosiy qoidalar.

Loyihalashtirilgan suv ta'minoti tarmoqlarini ishlatishda quyidagilarga amal qilish kerak: 1. Suv ta'minoti tizimini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalar va aholi punktlarini drenajlash. 2. Rejalashtirilgan profilaktika xizmati to'g'risidagi qoidalar (PPR) suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari. 3. Har bir ish joyi bo'yicha ish ta'riflari. Quvurning ishlash holatini ta'minlash uchun quyidagilar zarur: 1. Rejalashtirilgan profilaktik ta'mirlashni o'z vaqtida amalga oshirish va kapital va favqulodda ta'mirlash. 2. Quvurlarini o'z vaqtida sinovdan o'tkazish, ularni tozalash.

Elektr ta'minoti sxemasi.

2022 yil 18 iyul sanasida berilgan Texnik shart №1623-8. Texnik shartga muvofiq, loyihalashtirilgan inshootni elektr ta'minoti mavjud 110/10 kV quvvatli "Uchko'prik" p/st-si 10kVli Zig'ir uzatmasidan amalga oshiriladi. Loyiha 10/0.4 kV quvvatga ega KTPs- 160 kVA tipidagi transformator podstansiyasini o'rnatishni nazarda tutadi. -10 kV elektr uzatish liniyasi SV110-3,5 tayanchlari asosida loyixalangan tayanchlar bo'ylab AC-35 simlari bilan amalga oshiriladi. RLND-10 ajratgichlarini so'nggi tayanchlarga o'rnatish rejalashtirilgan. Elektr ta'minotining ishonchliligi darajasiga ko'ra ob'yektning III-toifasiga kiradi.

Tashqi elektr tarmoqlari.

-10 kV elektr uzatish liniyasi SV110-3,5 tayanchlarda AC-350 simlari bilan amalga oshiriladi. 0,4 kV kabelni yotqizish 0,7 m chuqurlikdagi xandaqda qum qatlami bilan va uning butun uzunligi bo'ylab g'isht himoyasi bilan amalga oshiriladi va kabel liniyasini muhandislik inshootlari va yo'llar bilan kesib o'tishda asbest-sement quvurlarida kabel yotqiziladi. Kabelning kesimi hisoblangan oqim kuchiga qarab tanlangan, kuchlanish yo'qolishi va bir fazali qisqa tutashuv holatiga qarab tekshirilgan.

Qisqa tutashgan toklarni hisoblash.

Releli himoya qilish. Qisqa tutashgan toklarni hisoblash, yuqori kuchlanishli uskunalarni tanlash va rele himoyasini hisoblash uchun zarur bo'lgan miqdorda PES ma'lumotlariga muvofiq amalga oshirildi. Tungi yoritgichi 100 Vt quvvatga ega OROZ tipidagi LED lampalar tomonidan amalga oshiriladi, ular SV95 markasining loyihalashtirilgan temir-beton ustunlariga o'rnatiladi va SIP3 markasiga tegishli bo'lib, uning kesimi 3x10mm². Tungi yoritish nazorat punktidan, AP50b avtomatdan, shuningdek MN-602 rusumidagi foto rele yordamida boshqariladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 29maydagi 97-son qaroriga binoan elektr uzatish liniyasini yotqizish paytida buzilgan sug'orish tizimi,

drenaj moslamalari, obodonlashtirish majmualari va boshqalar Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan qo'shimchaga muvofiq, agar kerak bo'lsa, kompensatsiya bilan to'lab, dastlabki holatiga keltiriladi. Monolit temir-betonli to'g'ri burchak (oddiy va perepadli) quduqlari.

3.1. Qurilishda ko'zda tutilgan ishlar, konstruktiv yechimlar batafsil tushuntirish yozuvi, loyixa topshirig'i, nuqson dalolatnomasi va taqdim etilgan loyixalarda batafsil ko'rsatilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Muxandislik tizimlari loyiha topshirig'iga muvofiq jixozlangan. (Elektron taqdim etilgan albomlarda batafsil ko'rsatilgan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Davlat ekologiya ekspertizasining 07.09.2020 yildagi 541 -sonli xulosasi.

5.2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 y 8 yanvar 9-sonli qarori 4-ilovasi 2.bandi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarining izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining texnologik, ichki muxandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.3. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan ko'rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko'rsatib o'tilgan).

6.4. Obyektning materiallar qiymati Farg'ona viloyat xokimiyati tomonidan tasdiqlangan narxlar bayonnomasiga asoslangan ko'rib chiqildi.

6.5. Buyurtmachi jami xarajati, ish xaqqi 12114,89 so'm/chelchas (ijtimoyi sug'urta siz) va pudratchining boshqa xarajatlari 19,39% buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.

Buyurtmachi tomonidan quydagi obyekt jami bo'lib **548 865,168** ming so'm taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga ko'ra quydagi ko'rsatgichlar tavsiya etiladi:

Qurilish qiymati QQS siz - 454 601,746 ming so'm

QQS 15% - 68 190,262 ming so'm

Qurilish qiymati QQS bilan - 522 792,008 ming so'm

Buyurtmachining xarajatlari - 22 627,757 ming so'm

Jami obyekt qiymati QQS va

buyurtmachi xarajatlari bilan - 545 419,765 ming so'm

Iqtisod qilingan mablag' - 3 445,403 ming so'm

Kamayish qurilish mashinalarini va mexanizm va ba'zi materiallar qiymati sozlash xisobiga amalga oshirildi.

6.5. Jixozlar qiymati buyurtmachi kompetensiyasiga kiradi

6.6. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi №579-sonli qarori 1-ilova, III bob, 29- bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaxarsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xakkoniyligi va kabul kilingan loyixa yechimlariga buyurtmachi va loyixa tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

7.1. **Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani Yulg'unzor MFY axolisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.** loyixa-smeta xujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Ko'rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to'g'risida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

Bosh mutaxassis: TASHTEMIROVA SHOXISTA MAXAMATJONOVNA